XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG’ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 8-yanvar VII-18-3-4-68-K/26 Yakkabog’ tumani

Yakkabog` tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorini belgilash toʻgʻrisida

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, tuman soliq inspeksiyasining 2025 yil 19-dekabrdagi 27-11934-sonli xatlari, xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori hamda Oʻzbekiston Respublikasi soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24- moddalariga asosan, xalq deputatlari Yakkabog’ tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yakkabog’ tumani bo`yicha 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi A.Jo‘rayev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i L.Xudoyqulov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **G‘IYOSOV ABDINABI KAMOLOVICH**

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-18-3-4-68-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori soliq turlari bo`yicha

T.R	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1.	Yakkabog‘	1,20	1,4	1,2

	tumani			